

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ФАНЛАР
АКАДЕМИЯСИ МИНТАҚАВИЙ БЎЛИМИ
ХОРАЗМ МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ**

**ХОРАЗМ МАЪМУН
АКАДЕМИЯСИ
АХБОРОТНОМАСИ**

Ахборотнома ОАК Раёсатининг 2016-йил 29-декабрдаги 223/4-сон қарори билан биология, қишлоқ хўжалиги, тарих, иқтисодиёт, филология ва архитектура фанлари бўйича докторлик диссертациялари асосий илмий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган

2023-6/4

**Вестник Хорезмской академии Маъмуна
Издается с 2006 года**

Хива-2023

Бош муҳаррир:*Абдуллаев Икрам Искандарович, б.ф.д., проф.***Бош муҳаррир ўринбосари:***Ҳасанов Шодлик Бекпўлатович, к.ф.н., к.и.х.***Таҳрир ҳайати:**

<i>Абдуллаев Икрам Искандарович, б.ф.д., проф.</i>	<i>Пазилов Абдуваеит, б.ф.д., проф.</i>
<i>Абдуллаева Муборак Махмусовна, б.ф.д., проф.</i>	<i>Раззақова Сурайё Раззоқовна, к.ф.ф.д., доц.</i>
<i>Абдуҳалимов Баҳром Абдурахимович, т.ф.д., проф.</i>	<i>Рахимов Раҳим Атажанович, т.ф.д., проф.</i>
<i>Агзамова Гулчехра Азизовна, т.ф.д., проф.</i>	<i>Рахимов Матназар Шомуротович, б.ф.д., проф.</i>
<i>Аимбетов Нагмет Каллиевич, и.ф.д., акад.</i>	<i>Рўзметов Бахтияр, и.ф.д., проф.</i>
<i>Аметов Якуб Идрисович, д.б.н., проф.</i>	<i>Садуллаев Азимбой, ф-м.ф.д., акад.</i>
<i>Бабаджанов Хушнот, ф.ф.н., проф.</i>	<i>Салаев Санъатбек Комилович, и.ф.д., проф.</i>
<i>Беканов Даврон Жуманазарович, к.ф.д.</i>	<i>Сапарбаева Гуландам Машариповна, ф.ф.ф.д.</i>
<i>Буриев Хасан Чутбаевич, б.ф.д., проф.</i>	<i>Сапаров Каландар Абдуллаевич, б.ф.д., проф.</i>
<i>Ганджаева Лола Атаназаровна, б.ф.д., к.и.х.</i>	<i>Сафаров Алишер Каримджанович, б.ф.д., доц.</i>
<i>Давлетов Санжар Ражабович, тар.ф.д.</i>	<i>Сирожов Ойбек Очилович, с.ф.д., проф.</i>
<i>Дурдиева Гавҳар Салаевна, арх.ф.д.</i>	<i>Сотилов Гойипназар, қ/х.ф.д., проф.</i>
<i>Ибрагимов Бахтиёр Тулаганович, к.ф.д., акад.</i>	<i>Тожибаев Комилжон Шаробитдинович, б.ф.д., академик</i>
<i>Исмаилов Исҳақжон Отабаевич, ф.ф.н., доц.</i>	<i>Холлиев Аскар Эргашевич, б.ф.д., проф.</i>
<i>Жуманиёзов Зоҳид Отабоевич, ф.ф.н., доц.</i>	<i>Холматов Бахтиёр Рустамович, б.ф.д.</i>
<i>Жуманов Мурат Арепбаевич, д.б.н., проф.</i>	<i>Чўпонов Отаназар Отожонович, ф.ф.д., доц.</i>
<i>Кадирова Шахноза Абдухалиловна, к.ф.д., проф.</i>	<i>Шакарбоев Эркин Бердикулович, б.ф.д., проф.</i>
<i>Каримов Улғубек Темирбаевич, DSc</i>	<i>Эрматова Жамила Исмаиловна, ф.ф.н., доц.</i>
<i>Курбанова Саида Бекчановна, ф.ф.н., доц.</i>	<i>Эшчанов Рузубой Абдуллаевич, б.ф.д., доц.</i>
<i>Қутлиев Учқун Отобоевич, ф-м.ф.д.</i>	<i>Ўразбоев Ғайрат Ўразалиевич, ф-м.ф.д.</i>
<i>Ламерс Жон, қ/х.ф.д., проф.</i>	<i>Ўрозбоев Абдулла Дурдиевич, ф.ф.д.</i>
<i>Майкл С. Энжел, б.ф.д., проф.</i>	<i>Ҳажиева Мақсуда Султоновна, фал.ф.д.</i>
<i>Махмудов Рауфжон Баходирович, ф.ф.д., к.и.х.</i>	<i>Ҳасанов Шодлик Бекпўлатович, к.ф.н., к.и.х.</i>
<i>Мирзаев Сирожиддин Зайниевич, ф-м.ф.д., проф.</i>	<i>Худайберганаева Дурдона Сидиқовна, ф.ф.д.</i>
<i>Мирзаева Гулнара Саидарифовна, б.ф.д.</i>	

Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси: илмий журнал.-№6/4 (102), Хоразм Маъмун академияси, 2023 й. – 303 б. – Босма нашрнинг электрон варианты - <http://mamun.uz/uz/page/56>

ISSN 2091-573 X

Муассис: Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси минтақавий бўлими – Хоразм Маъмун академияси

© Хоразм Маъмун академияси ношрлик бўлими, 2023

МУНДАРИЖА
ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

Abdullayeva D.A. Studying rhetorical sentence in terms of its semantic structure and categories	6
Akhmedova S.H., Shokulova L.B. Characteristic features of written discourse in the english language	8
Alimova S.S. Ingliz tilida otlarning kelishik grammatik kategoriyasi	10
Allaberdiev A. Buxoro o'g'uz shevalarida unli tovushlarning fonetik o'zgarishi	12
Amanlikova N.R. O'zbek va rus tillarida grammatik tizimining umumiy xususiyatlari tahlili	15
Arzieva B.A. Lexical units of funeral and mourning rites in the karakalpak and english languages	19
Avlaeva S.B. The essential role of neologisms in COVID-19 to enlarge vocabulary	21
Axmedova S.H., Mizrobova V.B. "Diskurs" terminining nazariy va amaliy xarakteristikasi	23
Azimova M.P. Theory of "concept", "conceptual semantics" and "linguistic semantics" in modern cognitive linguistics	26
Azizova N.O. The purification of violence and the translation of fairy tales	30
Baxranova D.U. Koreys tilida frazeologizmlarning tarkibiy jihatdan tuzilishi	32
Bazarova Sh.Sh. Feministik syujetda "ayol" konseptining qiyosi	35
Boboqulova G.Sh. Tohir Malikning "Shaytanat" asaridagi madaniyat xususiyatlari	39
Borasulova D.D. "Firdavs ul-iqbol" asarining o'rganilishi	41
Bozorova R.Sh. Gidropoetonimlarni qiyosiy tadqiq qilish	43
Cho'liyeva N.A'. Badiiy zamon va makon muammosining o'rganilishiga doir tadqiqotlar tizimi	46
Djumayeva N.D., Abduraxmonova M. Ingliz va o'zbek xalqlari diniy qadriyatlarini xususida	48
Djumayeva N.D., Murodova M. Qirol Artur haqidagi afsonalarda ingliz madaniyatining ifodalanishi	50
Elmuratova U.M. Koreys va o'zbek tillarida sifat so'z turkumining sintaktik vazifalari	53
Erbutayeva Sh.U. "O'zbek tilining izohli lug'ati" tarkibidagi ba'zi funksional ko'makchi vazifasida qo'llanilgan so'zlar tahlili	55
Eshmuradov Sh.X. Frazeologizmlar xalq dunyoqarashining timsoli sifatida	57
Fatullayeva K.R. Tibbiy birliklarning leksik-semantik munosabatlari	59
Ganiyeva Sh.A. Frazeologik kontaminatsiya masalalari	62
Ibragimov X. Nutq va xalq tili munosabati	64
Irgasheva U.A. Zamonaviy tilshunoslik doirasidagi baholash toifalariga yondashuvlar	66
Iskandarova A.R. O'zbek va rus tillarining so'z shakllanishining umumiy xususiyatlari	69
Haydarov A.A., Aminova Z.R. Ingliz va o'zbek tillarda leksemalarning konnotativ ma'nolari	71
Jarkinova T.A. Yusuf Shomansurning so'z qo'llash mahorati	74
Jumaniyozov A. Beruniy va sanskrit tili	77
Kabilova S.A. O'zbek va ingliz tillarida evfemizmlarning manipulyatsiya usullari va vositalari	80
Kasimova R.R., Alimova V.B. Cho'lponning "Kecha va kunduz" romanida badiiyat, uning yuzaga kelish omillari va mazmun-mohiyati	83
Khadjimuratova U. Functioning of diplomatic vocabulary in texts in english and russian business writing	87
Khamdamova D. The features of english pronunciation	90
Komiljonova K.G'. Erkin Vohidov she'riyatida tanosib san'atining qo'llanishi	91
Madaliev D.B. Problems in translation accounting-auditing terms and analyzing terms	93
Mamatov R. Nemis adibi Gerta Myullerning poetik asarlarini shakllanishida ijtimoiy muhitning o'ziga xos xususiyatlari	96

frazeologik birliklarning leksik tarkibi qisman farq qiladi. Masalan: o'zb. joniga tegmoq — rus. стоять .поперек горла.

Uchinchidan, to'liq bo'lmagan tillararo frazeologik analoglar guruhi ajralib turadi, bunda frazeologik birliklarning kontseptual o'xshashligi seziladi, ularning shakllanishi ikki tilda, ammo mutlaqo boshqa turlarga asoslangan va shuning uchun frazeologik birliklarning leksik to'liqligi unchalik o'xshash bo'lmashligi mumkin. Taqqoslashning asosiy asosi leksik va majoziy bo'lib, grammatik mezon hisobga olinmaydi. Misol uchun: o'zb. ko'ngilga zig'ir yog'dek tegmoq — rus. надоел как горькая редька. Yuqorida frazeologik birliklarning leksik tarkibi farq qilishini ko'rdik [6].

Lisoniy birlik sifatida frazeologizm ikki jihatning - ifoda jihatining va mazmun jihatining bir butunligidan iborat. Frazeologizmlarning ifoda jihati deb ularning asli qanday til birliklardan tarkib topgani tushuniladi. Frazeologizm ikki va undan ortiq leksemaning o'zaro semantik- sintaktik bog'lanib, umumlashma ko'chma ma'no kashf etishi bilan yuzaga keladi. Frazeologizmlarda birikmaning, gap shaklining ma'lum bir qolipi doimiy tarkibiy qism sifatida leksemalar va morfemalar bilan to'ldirilgan bo'ladi [7].

Xullas, frazeologiya deganda ma'lum bir xalqning ko'p asrlar mobaynida yig'gan tajribasining iboralar mazmuniga singishini tushunamiz. Muayyan tushunchalarni tahlil qilish taqqoslanadigan tillarning frazeologik birliklarining tipologik, universal xususiyatini aniqlashga imkon beradi. Demak, frazeologik birliklarda obrazlilik, bo'yoqdorlik bo'rtib turadi. Ibora yoki uning bir qismi ko'pincha ko'chma ma'noda bo'lganligi uchun obrazlilikka boy bo'ladi. Inson tana a'zolari qatnashgan frazeologizmlar nutq faoliyatida eng ko'p ishlatiladigan elementlardan biri bo'lib, ularni nutqda to'g'ri qo'llay olish nutqimizning yanada jozibador bo'lishini ta'minlaydi.

Butun dunyo tillarida frazeologik iboralar shaxslarning obrazli xususiyatlarini ochib berishda ishlatiladi va yuqori konnotativ salohiyatga ega. Rus va o'zbek tillarining frazeologik lug'atlarini kuzatish jarayonida xalqlar dunyoqarashi bilan bog'liq frazeologizmlarning ko'p ekanligi ham buning yaqqol dalilidir. Bunday frazeologizmlarning ko'pligi, ularning yorqin majoziy obraz va antroposentrik xususiyati tilshunos va leksikograflarning frazeologiya fondining ushbu qismiga qiziqishini belgilaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Dilnoza Ismoil qizi Abdukabirova. "Frazeologik birliklarning ingliz va o'zbek tillarida tarjima qilinish taraqqiyoti". ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES. // VOLUME 2 | ISSUE 5 | 2021. 67-b.
2. Jumaeva Zubayda Shavkatovna "Frazeologik birliklarning semantik va lingvokulturologik tadqiqi" diss avtoref. Jizzax – 2021.
3. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati — Toshkent: O'qituvchi, 1978 - 380 b.
4. D.X.Suyunova. "O'ZBEK VA RUS TILIDAGI AYRIM SOMATIK IBORALARNING SEMANTIK TAHLILI". "Talqin tadqiqotlar" ilmiy jurnali. №17 116-b.
5. Dilnoza Ismoil qizi Abdukabirova. "Frazeologik birliklarning ingliz va o'zbek tillarida tarjima qilinish taraqqiyoti". ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES. VOLUME 2 | ISSUE 5 | 2021. 69-b.
6. Shakirova Noxiraxon. "Frazeologizm-tilshunoslikning muhim bir bo'limi". Talqin va tadqiqotlar respublika ilmiy-uslubiy jurnali №5 156-b.
7. Usmonhodjaeva, M. A., & Shirnazarova, Z. A. (2020). Questions from foreign language teaching in educational bodies. Epra International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR), 6(6), 448-451.
8. www.aim.uz
9. www.cyberleninka.uz
10. www.arxiv.uz
11. www.library.uz

UO'K 81

TIBBIY BIRLIKLARNING LEKSIK-SEMANTIK MUNOSABATLARI

K.R. Fatullayeva, o'qituvchi, Buxoro davlat universiteti, Buxoro

Annotatsiya. Ushbu maqolada tibbiyot terminologiyasining tarixi, tibbiyot terminologiyasidagi sinonimlarning nomlari va zamonaviy tilshunoslikdagi hodisaga oid qarashlarni umumlashtiruvchi antonimik munosabatlar ko'rib chiqiladi. Sinonimiya haqidagi mavjud fikrlar tahlil qilinadi va lingvistik dalillar tushuntiriladi.

Kalit so'zlar: sinonim, tish jarrohi, tish shifokori, jarroh, shifokor, hamshira, tibbiy yordamchi, kasallik, astma, o'sma, toxov

Аннотация. В данной статье рассматривается история медицинской терминологии, названия синонимов в медицинской терминологии и антонимические отношения, в которых обобщаются взгляды на это явление в современной лингвистике. Существующие представления о синонимии анализируются и объясняются языковыми свидетельствами.

Ключевые слова: синоним, хирург-стоматолог, стоматолог, хирург, врач, медсестра, фельдшер, болезнь, астма, опухоль, проказа.

Abstract. This article deals with the history of medical terminology, the names of synonym in medical terminology and antonymic attitudes which summarizes the views on the phenomenon in modern linguistics. Existing ideas about synonymy are analyzed and explained linguistic evidence.

Keywords: synonym, dental surgeon, endodontist, tooth fairy, Surgery, Doctor, Nurse, medical assistant, Disease, asthma, cancer, leper.

Tibbiyot sohasidagi tibbiyot xodimi xushmuomalalik, mehribonlik, sezgirlik va javobgarlik, bemorga g'amxo'rlik va ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishi kerak. Ibn Sino bemorga alohida yondashuv haqida: "Siz har bir kishining shaxsan o'ziga xos tabiati borligini bilishingiz kerak. Tibbiyotda hozirgi kunda shifokordan be'morga tashxis qo'yganda o'zbek tilida yozilishi talab qilinadi. Bu esa tibbiyot xodimidan o'zbek tilini puxta qilishi zarurligini bildiradi. O'tgan yillar mobaynida tibbiyot fani va amaliyotida kata o'zgarishlar yuz berdi. Aholiga tibbiy xizmat ko'rsatishda va profilaktika tadbirlarini olib borishda yangi yo'nalishlar, davolash va diagnostika sohalarida yangi usullar va dori preparatlari, tibbiyot fanida yangi tarmoqlar va laboratoriyalar paydo bo'ldi. Yuzlab yangi terminlar yuzaga keldi, eskirib qolgan tushunchalar, usullar, dori-darmon va ular bilan birga terminlar ham este'moldan chiqdi. Terminlarning asosiy qismi lotin va yunon murakkab terminlardan hosil bo'lgan. Masalan: Abort- Abortus- Homila, bola tashlash, oldirish-homilani hali hayotga layoqatsiz davrida tushurish, ya'ni homiladorlikning dastlabki 28 haftasi mobaynida to'xtatish; Agoniya- Agonia- o'lim talvasasi, o'lim azobi, jontalash; Agressivlik- Agressio- tajovuzkorlik buzish, sindirish, urishga harakat qilishlari;[3]

Tibbiy terminlar doimo yangilanib turadi, yangi so'zlar, tushunchalar qo'shilib, ayrim eski terminlar chetlanadi. Oldingi davrlarda tibbiyot vakillari rus tilini bilishlari kifoya edi chunki bemorni kasallik xaritasiga rus tilida yozib bildirardi. Lekin bugunda albatta kasalliklarni kelib chiqish tarixini, simptonlarini uni oldini olish chora tadbirlarini va qanday davolash kerakligini bevosita bemor bilan suxbatlashib tushuntirish olib borilishi kerak. Tibbiyot tilida emas, balki xalq tilida ham kasallik haqida o'zbekchada tushunchaga ega bo'lishi kerak shifokor. Demak, shifokorlarimizdan o'z kasbini bilish barobarida o'zbek tilini ham mukammal bilishi talab qilinarkan. O'zbek tilimiz juda boy til. Vatandoshimiz Abu Ali ibn Sino ham juda boy "Tib qonunlari" kitoblarini bizga me'ros qilib qoldirganlar. Unda kasalliklarni eskirgan nomlari, kelib chiqish alomatlari hatto davolash turlarini ham aytib ketgan. Ayniqsa dorivor-giyohlar bilan kasallikni davolashda fitoterapiya sohasiga o'z hissasini qo'shgan. Ibn Sino o'zining tomli "Tib qonunlari" kitobidan birinchi tomida: "Issiqlik ovqatlarning zararidan sikanjubin bilan, xususan dorivor urug'lar aralashirilgan sikanjubin bilan davolanadi. Sikanjubin agar shakar bilan tayyorlangan bo'lsa dorivor aralashirilgani eng manfaatli turlaridandir. Agar u asal bilan tayyorlangan bo'lsa, oddiysi ham kifoya qiladi." [7] deb o'simlik bilan davolashni aytgan. Yoki "Shuningdek, yog'li narsadan aziyatlanadigan kishi dub yong'og'i, mirta urug'i, Shom jinjagi, kunor daraxting mevasi, do'lana kabi nordon va taxir narsa, Shom zanjabiliga o'xshash achchiq narsa, shuningdek, nonxo'rish, sarimsoq, piyoz kabi sho'r va mazasi o'tkir narsalar bilan davolansin;" [7]

Tilimiz boyligining yana bir jihati so'zlarning ko'plab ma'nodoshlari borligida. Vaziyatga qarab turlicha qilib fikrimiznin yetkaza olamiz. Sinonimiya semantik hodisa bo'lib, leksikadagi eng muhim tizim yasovchi kategoriyalardan biri hisoblanadi. Tilshunoslikda sinonimlar deganda bir xil tushunchaning nomini bildiruvchi so'zlar tushuniladi. Lug'aviy ma'nosida umumiylik, lekin semantik yoki hissiy-ekspressiv bo'yoqlari, uslubiy qo'llanishi bilan farqlanadigan so'zlar sanaladi [1]. Sinonimiya muammosini til, tafakkur va voqelik, o'zlik va farq, simmetriya va assimetriya o'rtasidagi bog'liqlik masalasidan ajratib bo'lmaydi. Amaliy nuqtayi nazardan, ushbu muammoni ko'rib chiqish insonning sinonimik vositalarga ega bo'lishining muhim roli bilan belgilanadi, bu esa tilning lug'ati va grammatik tizimidan uning fikr va his-tuyg'ularini aniq ifodalaydigan vositalarni tanlash imkonini beradi. Sinonimiya hodisasi har qanday tirik tilning, uning har qanday quyi tizimlarining, shu jumladan terminologiyaning ajralmas qismidir.

Barcha sohalarining terminologik lug'at fondida turli xil sinonimlar mavjud bo'lib, o'zlashtirilgan atamalar, yangi so'zlar va eskirgan atamalar o'rtasida ma'nodoshlik hosil etadi. Terminologiya har qanday til lug'aviy tizimining tarkibiy qismi bo'lib, umumiy adabiy til tarkibiga kiruvchi boshqa leksik tizim kabi qonuniyatlar asosida rivojlanadi. Binobarin, terminologik tizim har bir quyi tizimga ega bo'lgan barcha xususiyatlarga, shu jumladan, sinonimiyaga ham ega. Terminologiyada sinonimiya - bu istalmagan hodisa, lekin muqarrar. Terminologik tizimda sinonimlarning mavjudligi ilmiy tushunchalarning to'g'ri ifodalanishi va tavsiflanishini qiyinlashtirishi, bu esa, o'z navbatida, turli mamlakat olimlari o'rtasidagi muloqotni qiyinlashtirishi, ilmiy tibbiy monografiya, ilmiy maqolalarni tarjima qilishda muayyan qiyinchiliklar tug'dirishi xususida ham fikrlar bildirilgan. Jumladan, O.V.Cherneyko sinonimlarni tavsiflash muammosi mutaxassislarning allaqachonlar diqqatini tortganiga qaramay, ushbu hodisaga bo'lgan katta va doimiy qiziqish hanuz aniq yechimini topmaganligini ta'kidlasa, S.B.Lebedova «Sohada keng ko'lamlil tadqiqotlar olib borilganiga qaramay, ko'pgina savollar hanuz javobsiz qolmoqda. Ma'nodoshlik

fenomenining amaldagi terminologik fiksatsiyasi (talqini) aniq belgilanmaganligi va hodisa mohiyatini to'la aks ettirmagani uni qayta ko'rib chiqish zarurligiga shubha qoldirmayapti», deydi. A.A.Shumilova til egalarining millati, jinsi, yoshi va boshqa omillarga ko'ra sinonimik munosabatlar farqlanishi, sinonimiya o'ziga xos mental-lingvistik kategoriya ekanini isbotlab beradi[2].

Boshqa tilshunos olimlar (O. Axmanova [6], V. Danilenko [4]) sinonimik atamalar foydali, chunki ularning har biri tushuncha mazmunini turlicha ochib berishini, sinonimik atamalarning mavjudligi umuman terminologik tizimning semantik rivojlanishiga yordam berishini, tanlash orqali topishga yordam berishini ta'kidlaganlar. Ma'lum bir konsepsiyani belgilash uchun terminologiyada sinonimlarning mavjudligi materialni taqdim etishda takrorlashdan qochish imkonini beradi. Qolaversa, sinonimiya hodisasi zamonaviy fan va tibbiyot amaliyoti uchun katta amaliy va umumiy uslubiy ahamiyatga ega. Tibbiy atamalar uchun yangi sinonimlarning paydo bo'lishi, allaqachon ma'lum bo'lgan hodisaning torroq belgilari bo'lgan va eski atama bilan almastirilishi mumkin bo'lgan qo'shimcha atamalarni aniqlashtirishdir. Quyida keltirilgan misollarda tibbiy birliklar ma'nodoshligi hamda zidlanishi tillar kesimida o'z ifodasini topgan. Masalan: Alastrim- sin. Variola minor- oq chechak- tabiiy chechakning yengil o'tadigan, kam yuqumli shakli. Alveolit- Alveolitis sin. Alveolar pnevmaniya- bir guruh alveolalar to'plamining yallig'lanishi; Tish alveolalarining yallig'lanishi;[3]

Tibbiy birliklarda ham xuddi shu ma'nodoshlarni ishlatsak kasalga yoki kasalni yaqinlariga og'rinib tegmaydi aytgan so'zimiz. Biologik o'lim qayd etildi degan gapni boshqacha ma'nolarini ko'rib chiqsak: O'ldi, vafot etdi, olamdan o'tdi, ko'z yumdi, foni duniyoga ketdi, dunyodan o'tdi, bu dunyoni tark etdi kabi... yoki tug'ulish jarayonini olaylik: tug'ildi, duniyoga keldi kabi ma'nodoshlarni tilimizda ishlatishimiz mumkin. **kasal** - bemor, tibbiy shikoyatga ega inson, xasta; **pes-vitiligo**, dog' tushishi- teri oqarishi; **moxov-** she'r kasalligi, oq tushmoq; **qon tomiri** - arteriya; **o'sma-** saraton, rak. Ingliz tilidagi misollar: archenteron – primitive gut, aeroembolism – air embolism, hemotransfusion – blood transfusion, neurorrhaphy – nerve suture, splachnoptosis – downward displacement of an organ, hepatargy – liver failure. Diagnose denseness, gingerliness, kindliness, defenseless, surgery- abscission, enucleation, resection, section, incision.

Bundan tashqari tibbiyot terminologiyasida antonimlar deyarli kengroq ifodalangan (umumiy tilde). Bu holat fanda haqiqatda qarama-qarshi tushunchalar mavjudligi bilan izohlanadi va ob'ektlarni ilmiy tushunish buning aksi kontsepsiya elementidir. Namoyish tibbiyot terminologiyasida antonimiya qarama-qarshilik qilish zaruratidan kelib chiqadi. Ularni tasniflash maqsadida denotatlar- Tibbiy antonimiyaning o'ziga xosligi tushuntiriladi. Tibbiy terminologiyaga kiritilgan anatomik guruhlar tendentsiya bilan bog'liq. O'zbek tilida bir - bировiga zid ma'noli so'zlar ya'ni antonimlar mavjud. Tibbiyot terminlarini bir bировiga antonimik munosabatlariga ham duch kelamiz: kasal- sog', salomat, tandurust; operatsiya- konservativ davolash; o'simliklar bilan davolash- Jarrohlik amaliyoti.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki bu tadqiqotda garchi sinonimik atamalar asos bulmasada yosh tibbiyot xodimlari uchun va tibbiyot talabalari uchun qo'shimcha manba sifatida foydalanishlari mumkin. Ushbu maqola o'quvchiga semantik sinonimik atamalarni tahlil qilish, terminologik o'qitishga ham qiziqishini oshiradi, o'quvchilarning analitik usul odatini rivojlantiradi. Terminologiyaga bunday yondashuv ta'lim mazmuniga ongli munosabatda bo'lish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi. Tibbiyot talabalarining umumiy madaniy va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirilishiga hissa qo'shadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. <https://www.gramota.net/materials/2/2013/3-2/11.html> Филологические науки. Вопросы теории и практики. Тамбов: Грамота, 2013. № 3. Ч. 2. С. 50-54.
2. Мирханова Г. Ўзбек тилининг синоним сўзлар ўқув лугатини тузишнинг лингвистик асослари: Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. – Қарши, 2022. – 142 б.
3. Ruscha-lotinch-a- o'zbekcha tibbiy terminlar izohli lug'ati. Toshkent-1996
4. Даниленко В. П. Русская терминология: опыт лингвистического описания. М.: Наука, 1977. 246 с.
5. Колобаев В.К., Всеволодова А.Х. Синонимия в медицинской терминологии: pro & contra // Международный журнал экспериментального образования. – 2017. – № 5. – С. 89-92.
6. Ахманова О. С. Очерки по общей и русской лексикологии. М.: Учпедгиз, 1957. 295 с.
7. Abu Ali ibn Sino "Tib qonunlari" 1-jild. Abdulla Qodiriy nomidagi xalq me'rosi nashriyoti, 1993yil. 102-108 bet.
8. Raxmatullayeva F. K. Empowering Language Skills through Modern Methods //Middle European Scientific Bulletin. – 2021. – T. 18. – C. 253-258.
9. Fatullayeva K.R. et al. English Learning And Vocabulary Growing Methods //Journal of Positive School Psychology. – 2022. – C. 10628–10632-10628–10632.
10. Fatullayeva K.R. <https://zenodo.org/record/7700631#.ZAVq73bP0nk> Tibbiyotda Atamalarning Ma'nodoshlari Xususida